



**TASVIRIY VA AMALIY SAN'AT YO 'NALISHLARIDAGI TA'LIMIDA  
TALABALARINI O'QITISHDA MUTAFAKKIRLARINING RANGSHUNOSLIK  
HAQIDAGI FIKRLARINI AHAMIYATI.**

O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti  
v/b. dotsenti, p.f.f.d. (PhD) Shavqihev Elyor Rahmonberdiyevich

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada rangshunoslik masalalariga oid muhim ma'lumotlar berilgan. Bunda O'zbek xalqining asrlar osha foydalanib, o'rganilib kelayotgan milliy madaniyati an'analari, me'moriy obidalarining ranglariga izohlar berigan. Ularning yaratilishi, timsollari, mazmuni ma'nosi, shuningdek rangshunoslikdagi ifodasi sifatida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Rang, san'at, naqsh chizish, tasviriy va amaliy san'at.

### АННОТАЦИЯ

В настоящей статье приведены важные сведения об изготовлении и применении различных красок применяемых для покраски древних архитектурных памятников (полученные многовековым опытом ученых узбекского народа), а также отражены способы изготовления, их качества, состав и другие особенности.

**Ключевые слова:** цвет, искусство, узор роспись, изобразительное и прикладное искусство

### ABSTRACT

In present clause the special items of information on manufacturing and application of various paints used for ancient architectural monuments (received by centuries-old experience of the scientific Uzbek people) are given, and also the ways of manufacturing, their quality, structure and other features are reflected.

**Keywords:** color, art, pattern painting, fine and applied arts

Fan taraqqiyotining tarixidan shu narsani aytish mumkinki, rivojlanishning ko'lami va sur'ati, oldingi tajribalarga asoslanadi. Ya'ni, fandagi integrasion jarayonlar (bir davr bilan ikkinchi davr, bir mamlakat bilan ikkinchi mamlakat, bir soha bilan ikkinchi soha o'rtaqidagi aloqalar) qanchalik chuqur bo'lsa uning taraqqiyoti shunchalik nufuzli bo'ladi. Bu jarayonning tub mohiyati aslida uzviylikdan iboratdir. Xalqimizning uzoq o'tmishi, tarixiy taraqqiyoti, shakllanishidan, me'morchilik, tasviriy va amaliy san'at, xalq hunarmandchiligi paydo bo'lgan. Bular rivojlanib xalqlarni dunyoda bir – biriga tanilishida yordam bergan. Bularning tarqalishida Muhammad Xorazmiy, Abu Nosir Farobi, Abu Rayxon Beruniy, Muhammad Tarag'ay, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Kamoliddin Behzod kabi allomalarimizning hissalarini katta. Ular fan, san'at va adabiyot rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar. Jumladan Abu Rayxon Beruniy o'zining "Kitob al Javoxir-ma'rifat al Javoxir" (Minerologiya) asarida ranglarning 200 dan ortiq



nomlarini sanab o'tgan va bu ranglarning kelib chiqishi to'g'risida yozib qoldirgan. O'zbek xalqining tarixi bilan uyg'unlashib ketgan amaliy san'atning 226 dan ortiq turlari mavjud bo'lган ekan. Ammo 70 yil davomida bular ta'lim – tarbiya tizimida, o'quv mashg'ulotlari sifatida to'liq o'r ganilmasdan kelingan. Bu esa ushbu sohaning tuzilishini milliy, mahalliy, tarixiy xususiyatlarini yetarli yoritilmasdan qolishiga sabab bo'ldi. Ba'zi hunarmandchilikka oid turlar yo'qolib ketdi. Milliy hunarmandchiligidan tarixiy rivoji, bugungi kundagi ahvoli, tasviriy va amaliy san'atning turli sohalarining rivojlanishini tadqiq qilish bilan olimlardan R.Hasanov, S.S.Bulatov, I.A.Avazova, O.Xudoyorova, Q.Q.Qosimov, Yu.V.Maksimov, V.A.Mazur, B.B.Boymetov, N.Tolipov, S.Abdurasulov, A.Sulaymonov, R.Rajabov va boshqalar shug'ullanib kelmoqdalar. Tasviriy va amaliy san'atning muhim sohalaridan biri naqqoshlik bo'lsa unda ranglarni ishlatilishi, kompozitsiyalari uning alohida xususiyatlari faoliyat mahsuli hisoblanadi. Shunday bo'lgach tasviriy va amaliy san'atning naqqoshlik darslarini o'qitish jarayonida rangshunoslikka oid bilimlarni o'zlashtirishda qator muammolar yuzaga kelmoqda. Bular quyidagilardir:

- Rangshunoslikka oid bilimlarni o'r ganish o'quv yurtlari dasturlarida aks etmaganligi, tasviriy va amaliy san'at, dasturlarida rangshunoslikka oid bilimlarni o'r ganishga bo'lgan zamonaviy ehtiyojlarning borligi;
- Ranglarni o'rgatishning tizimli ravishda tashkil etilmaganligi;
- hozirgi paytda umumta'lim maktablarida kasb-hunar kollejlarida, oliy o'quv yurtlarida tasviriy va amaliy san'at darslarida, jumladan, naqqoshlik darslarida rangshunoslikka oid bilimlarni o'rgatish juda past darajada ekanligi, hamda rangshunoslikni o'rgatishning tabiiy holdagi zaruriyatligi;
- O'zbekiston Respublikasida yoshlarning kasbiy tayyorgarligi jarayonining, oliy o'quv yurtlaridagi naqqoshlik darslarida rangshunoslikka oid bilimlarni o'r ganishlari shaklan va mazmunan takomillashtirish zaruratinining borligi;
- Tasviriy va amaliy san'atning muhim sohalaridan biri naqqoshlikda ranglarni ishlatilishining alohida xususiyati hisobga olinmaganligi kabilardir;
- Oliy o'quv yurtlarida rangshunoslik bo'yicha laboratoriya ishlari yo'lga qo'yilmaganligi;
- Yevropaning yetuk rangshunos olimlarining tadqiqotlarini o'r ganish va ularning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilinmaganligi;
- Rangshunos olimlarning ishlari o'r ganilmaganligi (Filip Runge, German Lyudvig Gelmgolts, Vilgelm Osvald, Iogan Wolfgang Gyote) va boshqalar. [1]

Tasviriy va amaliy san'atda bu masalalar me'morlik san'ati bilan ham chambarchas bog'liq. Xalq amaliy san'ati, turlaridan bo'lgan naqqoshlik, o'ymakorlik, ganchkorlik, kandakorlik kabi sohalarida ranglarning ahamiyati beqiyosdir. Biroq jahonga mashhur bu san'at namunalari, qadimda asosan Varaxsha, Tuproqqa'l'a, Bolaliktepa, Afrosiyob saroylaridagi devoriy tasvir va naqshlar hamda O'zbekiston muzeylarida namoyish etilayotgan, so'nggi paytlarda topilgan XIX-XX asrغا oid uy-ro'zg'or buyumlaridagi naqsh va gullari bilan cheklanib qolmoqda xolos. Holbuki turar joy binolaridagi mahalliy masjitlardagi va so'nggi asrlarda bunyod bo'lgan zamonaviy me'morchilik uslublari uzviy ravishda uyg'unlashib ketgan. Imoratlardagi rango-rang naqshlar asrlar mobaynida yuzaga kelgan nafosat durdonalaridir. Bular yorqin va quvnoq ranglarda o'ta yuksak did bilan ado etilgan, biroq bezaklar deyarli panada qolgan. O'rta asr O'zbekistonining bezak san'atida



rang va naqsh ramzyligi birinchi o'ringa qo'yiladi. Qaysi bir tasvirni olmaylik uning zamirida albatta qandaydir ramziy ma'no yashiringan buladi. G'oyat murakkab naqsh kompozitsiyani bunyod etar ekanlar musavvirlar fikrini ma'lumotli kishi bir qarashdayoq ilg'ab olishi mumkin. Bularda asosan yaxshi tilaklarni aks ettirganlar. Xususan, naqshdagi ranglarning o'zlariga xos ma'nolari bo'lган. Masalan, gulsafsar osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli bo'lган. To'lqinsimon gul poyasi boylik va farovonlik timsoli, novda va yaproqlar esa to'kinchilik hamda tabiatning bahor chog'ida uyg'onishini anglatgan. Bezakli naqshlar musavvirlarning ona tabiatga chuqr muhabbatlarni ifoda etib, ularning jo'shqin hayot bilan doim hamnafas ekanliklarini bildirgan. [3]

O'zbekiston o'zining qadimiylarini milliy yodgorliklari bilan jahonga mashhur. Bulardan Samarqanddagi Shohizinda maqbarasi, registon maydonidagi Ulug'bek, Sher dor, Tillakori madrasalari, Go'ri Amir maqbarasini aytish mumkin. Yana Buxoroda noyob Mir Arab Ulug'bek Devondagi madrasalari ming yildan buyon qad roslab turibdi. Buxoroning ko'rki bo'lib kelayotgan yana bir madrasasi Ismoil Somoniyidir. Shu kabi Minorai kalon, Termizda Hakim Termizi maqbarasi, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Xivadagi Islomxo'ja minorasi, Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasa va boshqa tarixiy obidalar o'rta asr Sharq me'morchilik san'atining go'zal namunalarini bo'lib, hisoblanadi. Ular o'zining murakkabligi va naqshlarining jozibaligi, rang-barangligi bilan dunyoga dong taratgan. Tillakori madrasasi. 1647-1657, 1660-yillarda qurilgan Registon ansambilining markaziy qismida o'tmisht karvonsaroy xarobalari qad ko'targan. Tillakori madrasasi Samarqandga husn bag'ishlab turibdi. Madrasaning ichkarisiga boshdan oyoq bezaklar tilla suvi berib ishlangan. Unda "kundal" uslubidagi ajoyib naqshlar bilan jilolanganligini ko'ramiz. Ulug'vor me'morchilik namunalarida boy va rang-barang bezaklari bir-biri bilan uyg'un holda yaxlit tantanavor manzara kasb etgan. Madrasa katta xonasining ichidagi badiiy bezaklar jilosi hamda rango-rang naqshlarning tovlanishiga asoslangan kompozitsiya me'moriy shakllarning tuzilishiga qarab taqsim etilgan. Burchaklardagi mehroblar kundal uslubida islimiy naqshlar bilan bezatilgan. Bibixonim masjidi esa Samarqand 1399-1404-yillarda qurilgan bo'lib masjidning naqshlari o'zining rango-rangligi bilan kishini lol qoldiradi. O'yma marmar plitalar, sirlangan g'ishtlardan terilgan naqshli devorlar mazaika usuli bilan ishlangan. Jozibador frizlar, tanchalar, devorlarga solingen tasvirlar o'zaro uyg'unlashib yaxlit badiiy to'qima hosil qiladi. Ulug'bek madrasasi ham 1417-1422-yillarda bunyod etilgan. Madrasa asrlar davomida musulmon sharqining dong taratgan oliy bilim maskani bo'lib keldi. Madrasa binosi ta'lim tarbiya maqsadlarini ko'zlab bunyod etilgan. Ammo uni bunyod etgan me'morlar talabalarga bilim va tarbiya berish masalasini hal qilishga yordam berishi uchun uni go'zal san'at asari qilib yaratgan. Uning tashqi go'zalligini ko'rsatib turgan jozibador ranglar esa bilim olish uchun keladigan talabalarni hisobga olgan holda tanlangan. Talabalarning ilmga bo'lган qiziqishlari va chuqr fikr yuritishlari uchun maxsus shunday ranglar berilgan. Shuning uchun bunday madrasalarda ta'lim olgan talabalardan kelajakda olimu-fuzalolar yetishib chiqqan. Oddiy va rangli sirlangan g'ishtlar mozaika va o'yma marmarlar yulduzsimon guruqlar va arab imlosidagi yozuvlar ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lган. Maftunkor ranglari esa Ulug'bekning ma'rifatparvarligi va falakiyot faniga cheksiz muhabbatini asrlar osha hikoya qilib turadi.

Gullar va naqshlar borasidagi xalq tasavvuri doim sehr-jodu aqidalar urf-odatlar va pand-nasihatlar bilan qorishib ketgan. Masalan, oq rang baxt va omadni bildirgan, zangori rang – oliy e'tiqodni, qizil rang - xushchaqchaqlik va shodlikni va hokazo. Ranglar bir-



biriga chaplashtirilmay har biri o'z holicha g'oyat tiniq qilib ishlangan. Shunday bo'lsada hatto bir biriga eng zid ranglar ham qandaydir yaxlitlikka ega bo'lган. Ranglardagi bu ramziylik O'zbekiston xalqlarining liboslariga, zargarlik buyumlarida uy-ro'zg'or ashyolariga va uy-joy bezaklariga ham uzviy ravishda ko'chib o'tgan.[4]

Mana shunday xalqimizning asirlar osha o'rganib, foydalanib kelayotgan an'analarini talabalarga singdirish bizning burchimizdir. Agar tasviriy va amaliy san'atni o'qitish jarayonida ranglarni xossalari talabalarga o'rgatib borsak undan keyin o'quvchilarga bu an'ana yetkaziladi. Rangshunoslikda ramziylik nihoyatda kerak ekanligi hamda uni chuqur bilib olish lozimligi bugungi kunda ham zarur. Shularni mashg'ulotlar davomida o'rganish orqali tarixiy, madaniy va milliy merosimizni o'rganib olinishga zamin yaratiladi. Hozirgi davr tasviriy va amaliy san'atini o'qitish jarayoniga ranglarning o'ziga xos xususiyatlari, ramziy ma'nolarini chuqurroq o'rganish ham asosiy maqsad qilib qo'yilsa to'g'ri bo'ladi. Shunda jamiyatimiz uchun ranglarning xususiyatini ham puxta o'rgangan barkamol inson shakillanadi

### **ADABIYOTLAR:**

1. Bulatov S. Rangshunoslik. – T. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashiryoti. 2009. – 160 b.
2. M. Nabiiev "Rangshunoslik va rangtasvir texnologiyasi" T-1995
3. EgamovX. Bo'yoqlar bilan ishlash. –T. O'qituvchi. 1981. -56 b.
4. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati.–T.Mehnat. 1991. – 386 b.
5. Shavqiyev E. Talabalarda rangshunoslikka oid bilimlarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. (Metodik qo'llanma) - T. Tafakkur bo'stoni. 2012.- 14 b
6. Жураев Х. Ранглар уйгунлиги. Санъат журнали, 1991 й, 6-сон.

